

Raxmatullayeva Parizod Xolmamat qizi

*Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti*

*„Yurisprudensiya“ (faoliyat turlari bo'yicha)*

*talim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Annotatsiya. Ichki Ishlar organlari asosan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash hamda huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha profilaktika ishlarini amalga oshiradi hamda Ichki Ishlar vazirligi ijroiya hokimiyati hisoblanadi. Bundan tashqari huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasida Ichki Ishlar vazirligi rahbarlik qiladigan yagona tizimni tashkil etadi.*

*Kalit so'zlar: Huquqbuzarlik, profilaktika, vazirlik, tergov, kriptografik vositalar, yagonalik, qonuniylik, shaffoflik, harbiy safarbarlik, tezkor qidiruv, tergovga qadar tekshiruv, Ichki Ishlar organlari, Konstitutsiya, javobgarlik, qonunchilik.*

Bilamizki O'zbekiston Respublikasida Ichki Ishlar vazirligi ijroiya hokimiyati organi hisoblanadi hamda o'z faoliyati davomida fuqaro va inson erkinligi va huquqlarini himoyalashda davlat boshqaruvini amalga oshiradi. Shuningdek Ichki Ishlar organlari huquq-tartibotni saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashda o'rni beqiyosdir. Ichki Ishlar vazirligi 1991-yil 25-avgustda ishga tushirilgan hamda o'z faoliyatini "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" shiori ostida amalga oshiradi. Dastlab Ichki Ishlar organlari tarixiga nazar soladigan bo'lsak 1919-yil 26-iyunda Turkiston ASSR Ichki Ishlar Xalq Komissariatining "Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasidagi Sovet ishchi-dehqon militsiyasi to'g'risida"gi nizom, o'sha yilning iyul oyida qabul qilingan "Turkiston ASSRda, jinoiy qidiruvni tashkil etish to'g'risidagi nizom", 1948 yilda qabul qilingan "Militsiya postlari va patrul xizmatining nizomi", 1953 yil 20-iyuldagi O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining "O'zbekiston SSRda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish va jamoat tartibini saqlash choralari to'g'risida"gi qarori, ichki ishlar idoralarida dastlabki tergov yuritish huquqini bergan sobiq ittifoq Oliy Kengashi Rayosatining 1963 yil 6-apreldagi "Jamoat tartibini saqlash idoralariga dastlabki tergovni olib borish huquqini berish to'g'risida"gi farmonlari O'zbekiston SSR ichki ishlar organlari faoliyatining asosi bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, ichki ishlar idoralari faoliyatida ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi. Vazirlik Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 8-yanvardagi 16—sonli "Ichki ishlar idoralarida xizmat o'tash tartibi haqidagi nizom", 2001 yil 27 mart kuni O'zbekiston Prezidentining "Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni asosida ishlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining nizomi va tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 25-oktabrdagi № 270-sonli qarori bilan tasdiqlangan. 2006-yil 25-

oktabrdagi Oliy Majlis qaroriga muvofiq, shu kun ichki ishlar xodimlari kuni deb belgilandi.

Ichki Ishlar organlari o'z vakolati doirasidan kelib chiqib quyidagi yo'nalishlarni amalga oshiradi:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash;
- tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o'tkazish;
- jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan terrorchilik harakatlariga chek qo'yishda hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish yo'li bilan kurashish, shuningdek odam savdosiga qarshi kurashish;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;
- ehtiyot choralarini, jinoiy jazoni va jinoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini ijro etish, shuningdek shaxslarni qidirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, ma'muriy jazolarni qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish;
- yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash;
- pasport tizimi talablarining bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalarni berishga hamda rasmiylashtirishga doir ishlarni, pasport tizimiga va O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshirish;
- fuqaroviy va xizmat qurolining hamda uning o'q-dorilarining, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasini nazorat qilish;
- ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirish;
- davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash;
- litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish;
- harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish.

Ichki Ishlar organlari fan yutuqlari, zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimidan foydalanadigan organ hisoblanadi va jismoniy va yuridik shaxslar vakolatiga taalluqli elektron davlat xizmatlari ko'rsatilishini, qabul qilingan hujjatlar ro'yxatini, davlat xizmatlari ko'rsatish jarayoni to'g'risidagi xabarnomalarning electron shakllari qo'llanilishini ta'minlaydi. Ichki ishlar organlari jamoat tartibini, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatlar, ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olishda, ularni aniqlashda, ularga chek qo'yishda, ularni fosh etishda, tergov qilishda hamda jinoyatlar, ma'muriy

huquqbuzarliklarning sodir etilishi holatlarini, hodisalar holatlarini hujjatlashtirishda, shu jumladan jamoat joylarida, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarayotgan ichki ishlar organlari xodimlarining harakatlarini qayd etish uchun texnik vositalardan, shu jumladan audio, foto va video qayd etish vositalaridan foydalanishi mumkin. Shuningdek Ichki Ishlar organlari hududdagi uchastkalarni, turar joylarni, inshootlarni va boshqa obyektlarni o'rab olish huquqiga ega va bu quyidagi hollarda amalga oshadi:

-avariyalar, tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo'lgan falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatishda, epidemiyalar va epizootiyalar vaqtida karantin tadbirlarini o'tkazishda;

-ommaviy tartibsizliklarga hamda transport harakatini, aloqa vositalarini va tashkilotlar ishini izdan chiqaruvchi boshqa harakatlarga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarni o'tkazishda;

-qamoqdan qochgan shaxslarni va jinoiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni qidirishda;

-jinoiyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ta'qib etishda;

-terrorchilikka qarshi operatsiyani o'tkazishda, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari yoxud zaharli yoki radioaktiv moddalar topilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirishda;

-ommaviy tadbirlar, shu jumladan bayramlar, xalq sayillari, mitinglar, ko'cha yurishlarini o'tkazishda.

Agar fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlash, tergov harakatlarini, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish, jinoiyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyni, hodisa joyini qo'riqlash, shuningdek xavf tahdid solayotgan mulk obyektlarini himoya qilish uchun zarur bo'lsa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda hududdagi uchastkalarni o'rab olish (to'sib qo'yish) chog'ida transport vositalari va piyodalar qatnovi cheklanishi yoki taqiqlanishi mumkin.

Agar fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga xavfning oldini olish uchun zarur bo'lsa va ularni boshqacha usulda himoya qilish mumkin bo'lmasa, o'rab olish (to'sib qo'yish) jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli turar joylarga, imoratlarga va boshqa obyektlarga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari ushbu moddada ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirishda bo'lg'usi o'rab olish (to'sib qo'yish) haqida aholini xabardor qilish, aholining normal hayot kechirishini ta'minlash choralarini ko'radi, fuqarolarga yuzaga kelgan vaziyatda eng qulay harakatlanish yo'nalishlarini tushuntiradi."

Ichki ishlar organlarida davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni muhofaza qilish, shu jumladan kriptografik vositalarni qo'llagan holda texnik jihatdan muhofaza qilish ta'minlanadi.

Ichki Ishlar organlari qonunga qat'iy rioya qiladi hamda faoliyatini Konstitutsiya va "Ichki Ishlar to'g'risida"gi qonun asosida qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflik orqali amalga oshiradi. Shunday ekan qonunchilikga rioya etmaslik hamda qonunda nazarda tutilmagan har qanday holatni amalga oshirish qonunchilikga xilof hisoblanadi va belgilangan javobgarlikga sabab

bo'ladi. Shuningdek Ichki ishlar organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to'g'risidagi axborotni almashishni, shu jumladan elektron shaklda almashishni, shuningdek boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org)
3. "Ichki Ishlar organlari to'g'risida"gi qonun
4. Lex.uz
5. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar
6. 8-sinf davlat va huquq asoslari
7. Davlat va huquq nazariyasi. –T."Sharq"